

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUVNINIG AHAMIYATI

*Manzurboyeva Xafiza Imom qizi*

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy va amaliy ahamiyati, differensial yondashuvni qo'llashning metodik asoslari yoritib berilgan. Bolaning nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, nutq rivojlantirish mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'yin metodlari va individual ishlash usullarining ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** differensial yondashuv, nutq rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, metodika, individual yondashuv, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.

### **Kirish**

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa ularning nutq faoliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq bolaning tafakkuri, ijtimoiylashuvi, muloqotga kirishishi va shaxs sifatida shakllanishida muhim omil sanaladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kundagi har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida shu vazifaga e'tibor qaratilmoqda deb aytsak, mubolag'a bo'lmaydi.

Nutq — bu insoniyat sivilizatsiyasining eng murakkab psixofizik jarayoni bo'lib, u bolaning ijtimoiy adaptatsiyasida markaziy o'rin tutadi. Zamonaviy pedagogikada **differensial yondashuv** tushunchasi ta'lim mazmunini, metodlarini va shakllarini bolaning intellektual salohiyatiga moslashtirish sifatida talqin etiladi.

Bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi bir xil bo'lmaganligi uchun ularga differensial yondashuv asosida ta'lim berish samarali usul hisoblanadi. Differensial yondashuv har bir bolaning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonidir.

**Differensial yondashuv** — bu ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini inobatga olib ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi turli darajada kechadi. Ayrim bolalar tez va ravon gapira olsa, boshqalarda talaffuz, lug'at boyligi yoki grammatik tuzilishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Differensial yondashuv orqali ta'lim berish jarayonida bolalarni o'zlashtirishiga qarab mashg'ulot olib boriladi. Shu nuqtai nazardan differensial yondashuv har bir bolaning nutqiy

imkoniyatlarini aniqlashga, bolalarni nutq rivojlanish jarayonida individual xususiyatlarini hisobga olish, faoliyat davomida bolalarga mos metod va vositalarni tanlash, bolalarda ijobiy o'zgarish bo'lsa nutqiy faollikni rag'batlantirish va shu bilan birgalikda muloqot madaniyatini shakllantirish vazifalarini o'z ichiga oladi.

**L.S. Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" va "Tafakkur va nutq"** asarida ta'lim bolaning rivojlanishidan doimo bir qadam oldinda yurishi kerakligini ta'kidlagan. *"Bolaning mustaqil bajara oladigan ishi bilan kattalar yordamida bajara oladigan faoliyati o'rtasidagi masofa uning yaqin rivojlanish zonasidir."* Nutq o'stirishda differensial yondashuv har bir bolaning ushbu "zona"sini aniqlash va unga mos keluvchi individual pedagogik traektoriya (yo'nalish) chizishni anglatadi.

Hozirgi kunda barchamizga ma'lumki, an'anaviy usullardan ko'ra o'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali yo'nalish sanaladi. Shu sababda, bolalar bilan birgalikda nutq rivojlantirish mashg'ulotlarida didaktik va rolli o'yinlardan foydalanish yuqori natija beradi. Ayniqsa differensial yondashuvda o'yinlar bolaning qiziqishi va qobiliyatiga mos tanlanadi. Masalan, nutqiy faoliyat davomida sust nutqli bolalar bilan predmetli o'yinlar, faol bolalar bilan rolli dialoglar, talaffuzi qiyin bolalar bilan fonetik mashqlar, lug'ati boy bolalar bilan hikoya tuzish ishlari tashkil etiladi ushbu usullar orqali bolalarni individual xususiyatlaridan kelib chiqib muloqot jarayoni olib borilsa, natijaga ko'proq erishiladi va samaraliroq bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, nutq rivojlantirish jarayonida individual mashg'ulotlar muhim o'rin egallaydi. Pedagog bolaning muammoli jihatlarini aniqlab, unga mos topshiriqlar beradi. Kichik guruhlarda ishlash esa bolalarda muloqot madaniyatini shakllantiradi va o'zaro hamkorlikni rivojlantiradi. Differensial yondashuv nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama bolalarni shakllantiruvchi vositadir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalaridan bir hisoblanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarning muloqot madaniyatini shakllantirish ularning kelgusida maktab ta'limiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.. Differensial metodlar orqali tashkil etilgan muloqot muhiti bolada o'z fikrini erkin bayon etish, mantiqiy xulosalar chiqarish va jamoada kommunikativ aloqaga kirishish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqiy faoliyatni differensial asosda tashkil etish nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishida hamda kognitiv jarayonlarining uyg'un rivojlanishida ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2019-y.

2. D.R. Babayeva. "Nutq o‘stirish metodikasi". (Darslik). Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
3. A.A. Leontyev. "Psixolingvistikheskie edinitsi i porojdenie rechevogo viskazivaniya". M.: Nauka, 2014. (Xalqaro ilmiy asos).
4. F.R. Qodirova. "Maktabgacha ta’lim metodikasi". – T.: Universitet, 2015.